



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATIDA 2022-YILDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

Madaniyat bu - inson faoliyati va uning ahamiyatini belgilovchi ramziy vositalar va asarlar yig'indisidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Antropologiyada «madaniyat» atamasi mahsulot va ularning ishlab chiqarilishi, estetik qiymati va shu jarayonlar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni bildiradi. Bu jihatdan madaniyat san'at, fan va manaviy tizimlarni o'z ichiga oladi.

Madaniyat - bu jamiyat, shaxsning ijodiy kuchlari va qobiliyatlari tarixiy rivojlanishining ma'lum darajasi. U kishilar hayoti va faoliyatining turli jabhalarida, ular yaratayotgan moddiy va ma'naviy ne'matlarda namoyon bo'ladi.

San'at - ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shaklidir. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida inson faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda paydo bo'la boshlagan.

San'at odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirish bilan birga, o'z taraqqiyotining turli bosqichlarida jamiyat a'zolarini ma'lum bir ruhda tarbiyalash, ularning aqliy va hissiy rivojlanishi, shaxsning turli maqsadlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlari va ideallarini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qilgan. Estetik tafakkur tarixida san'at go'zallik qonuniyatlari asosida qandaydir tarzda narsa va hodisalarni aks ettirish va hayotni badiiy tarzda ifodalash g'oyasiga aylangan.

Teatr san'ati - azaldan insoniyatning ma'naviy hayotida o'z o'rnini egallagan. Ming yillar avval qadimgi Hindiston, Qadimgi Xitoy va Qadimgi Yunonistonda teatr dastlab bir, keyin ikki bosqichdan iborat bo'lib, shundan keyingina jamoaviy san'at turiga aylangan. Boshqacha aytganda, spektakl jamoaviy ijod mahsuli bo'lsa, rejissyor, dramaturg, aktyor, rassomning ijodiy izlanishlari samarasi bo'lsa, aktyorlarning bugungi ishi boshqacha. Demak, sahna san'atkorining muttasil ijodkorligini ko'rsatadi, aktyor zamonaviy san'atga uning ruhi, ijodiy kayfiyati bilan bog'liq nimadir qo'shadi yoki olib tashlaydi.



Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDA MUZEYLAR FAOLIYATI

Andijon viloyatida 2022-yil yakuni bo'yicha 3 ta muzey faoliyat ko'rsatgan. Yil davomida muzeyga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 167,7 ming nafardan iborat. Ulardan 79,1 ming nafari yoki 47,2 % o'quvchi va talaba yoshlar hissasiga to'g'ri keladi. Tashrif buyuruvchilar soni o'tgan yilga nisbatan 18,2 ming nafarga ko'paygan.

2022-yilda viloyat muzeylarida 48 ta turli mavzudagi maruzalar o'tkazildi. Bundan tashqari 11 ta ko'rgazmalar tomashabinlarga havola etildi. Muzeylar tomonidan 290 ta ekskursiyalar tashkil etildi. Ekskursiya tarzidagi tadbirda qatnashgan ishtirokchilar soni 83,4 ming nafardan iborat.



2020-yil

2

2021-yil

2

2022-yil

3

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

2022-YILDA EKSPONATLARNING TURI BO'YICHA MUZEYLAR FONDI, (birlik)

Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan muzeylarda 2022-yil yakuni bo'yicha asosiy fond eksponatlari soni 115 540 ta bo'lib, ulardan 172 tasi noyob eksponatlar hisoblanadi. Yil davomida ulardan 1414 tasi tomoshabinlarga namoyish etildi.

Eksponatlar ichidan qadimiy arxeologiya buyumlari soni 46 421 ta bo'lib, ular jami mavjud eksponatlarning 38,3 % ni tashkil etadi. Ilmiy inventarizasiyadan o'tgan eksponatlar soni 109 606 tadan iborat.



ANDIJON VILOYATIDA TEATRLAR FAOLIYATI

Andijon viloyatida 2022-yil yakuni bo'yicha 3 ta professional teatr jamoalari faoliyat ko'rsatgan. Jumladan : Andijon viloyat musiqa va drama teatri, Andijon viloyati yosh tomoshabinlar teatri va viloyat bolalar qo'g'irchoq teatri.



Yil davomida viloyat teatrlar xodimlari tomonidan jami 589 ta spektakllar (tomoshalar) muxlislarga havola etildi. O'tgan 2021-yil bilan taqqoslaganda spektakllar soni 74 taga ortgan. Ularga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 159,5 ming nafarni tashkil etdi.



3

Teatrlar soni

589

Spektakllar soni

159,5

Tomoshabinlar soni

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDA TEATRLARNING JANRLAR BO'YICHA TAQSIMLANISHI, *birlik*



Drama

2

Qo'g'irchoq

1

Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan teatrlar janrlari bo'yicha drama va qo'g'irchoq teatrlaridan iborat. Yil davomida drama taetrlari tomonidan 230 ta va qo'g'irchoq teatri tomonidan 359 ta spektakllar tomoshabinlarga namoyish etildi.

Teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni jami 159,5 ming nafardan iborat bo'lib, ulardan 49,0 ming nafari drama teatri va qolgan 110,5 ming nafari qo'g'irchoq teatrining muxlislari hisoblanadilar. Teatr jamoasi spektakllarni asosan davlat tili, ya'ni o'zbek tilida namoyish etadilar.

Viloyat teatrlarida jami 112 nafar artist xodimlar faoliyat olib boradilar. Ulardan 42 nafari ayollardan iborat.

Drama

230

Spektakllar soni, *birlik*

98

Artist xodimlar soni, *kishi*

49,0

Tomoshabinlar soni, *ming kishi*

Qo'g'irchoq teatri

359

14

110,5


Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDA KONSERT TASHKILOTLARI FAOLIYATI

Andijon viloyatida 2022-yil yakuni bo'yicha 3 ta konsert tashkilotlari faoliyat ko'rsatgan. Ular faoliyat turi bo'yicha 2 ta filarmoniya va 1 ta gastrol-konsertdan iborat. Yil davomida ushbu tashkilotlari tomonidan 355 ta konsert dasturlari tomoshabinlarga namoyish etildi. Konsert dasturlaridagi tinglovchilar soni 166,9 ming nafardan iborat.



Konsert ishtirokchilari soni, ming kishi




Konsert tashkilotlari
soni, birlik

O'tkazilgan konsertlar
soni, birlik

Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan jami 355 ta konsert dasturlaridan 238 tasi filarmoniya va qolgan 117 tasi gastrol-konsert artistlari tomonidan namoyish etilgan.


Jami konsert tinglovchilarining 82,4 ming nafari filarmoniya va qolgan 84,5 ming nafari gastrol-konsert jamoalari muxlislari hisoblanadi.



Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDA KONSERT TASHKILOTLARI FAOLIYATI, *birlik*

Andijon viloyatidagi konsert tashkilotlari tomonidan 2022-yil yakuni bo'yicha 355 ta konsert dasturlari tinglovchilarga namoyish etilgan bo'lib, ular soni o'tgan 2017-yil bilan taqqoslaganda 3,3 barobarga, hamda tinglovchilar soni 7,7 barobarga ko'payganligini kuzatish mumkin.



■ Konsertlar soni, (birlik) ■ Tomoshabinlar soni, (ming kishi)

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDA HAYVONOT BOG'LARI FAOLIYATI, *birlik*

Andijon viloyatida 2022-yil yakuni bo'yicha faoliyat ko'rsatgan hayvonot bog'ining umumiy maydoni 5 gektardan iborat bo'lib, unda 52 xil turdagi 366 ta hayvonot va 33 turdagi 3 250 tup o'simliklar mavjud.

Yil davomida hayvonot bog'iga qatnovlar soni 56,0 ming kishini tashkil etgan bo'lib, ulardan 38,0 ming nafari yoki 67,8 % ni bolalar hissasiga to'g'ri keladi.

HAYVONOT DUNYOSI NAMUNALARI TURLARI, *birlik*



Ham quruqlikda,
ham suvda
yashovchilar

1

17

Baliqlar



Sudralib
yuruvchilar

2

14

Parrandalar



Sut emizuvchilar

16

2

Boshqalar



HAYVONOT BOG'IDA O'TKAZILGAN TADBIRLAR SONI

TADBIRLAR SONI, *birlik*

8

Ekskursiyalar

2

Ma'ruzalar

TASHRIF BUYURGANLAR SONI, *kishi*

Ekskursiyalar

7000

Ma'ruzalar


240

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDA MADANIYAT VA ISTIROHAT BOG'LARI FAOLIYATI

Andijon viloyatida 2022-yil yakuni bo'yicha madaniyat va istirohat bog'lari soni 21 ta tashkil etdi. Ularning umumiy maydoni 412 gektardan iborat.

Madaniyat va istirohat bog'larida dam olish ob'ektlari soni 78 ta bo'lib, ularda 238 ta turli xildagi ko'ngilochar attraksionlar o'rnatilgan.



Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan madaniyat va istirohat bog'lariga yil davomida 367,0 ming nafar aholi madaniy dam olish maqsadida tashrif buyurgan. Jami tashrif buyurganlarning 286,1 ming nafarini yoki 78,0 % ni bolalar tashkil etadi.

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATI SHAHAR VA TUMANLARIDAGI MADANIYAT VA ISTIROHAT BOG'LARI SONI, *birlik*



Andijon viloyatida 2022-yil yakuni bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan madaniyat va istirohat bog'lari soni 21 ta ni tashki etadi. Ulardan 4 tasi viloyat markazi Andijon shahrida joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 329,5 gektardan iborat.

MADANIYAT VA ISTIROHAT BOG'LARI DINAMIKASI, *birlik*



Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATI SHAHAR VA TUMANLARIDAGI MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATI, *birlik*

Andijon viloyatining 16 ta shahar va tumanlarida 2022-yil yakuni bo'yicha 66 ta madaniyat muassasalari faoliyat ko'rsatgan. Ularda turli yo'nalishdagi 200 ta to'g'arak va mashg'ulot xonalari mavjud. Yil davomida madaniyat markazlari xodimlari tomonidan 3 426 ta rang-barang mavzudagi madaniy-ma'rifiy-ommayiy tadbirlar o'tkazilgan. Ulardan 933 tasi bolalar va 550 tasi ayollar uchun mo'ljallangan.



Mavzuli, adabiy-badiiy kechalar

1655

Konsertlar

1018

Ommaviy-madaniy –ma'rifiy tadbirlar

481

Teatrlashtirilgan tomoshalar va
xalq sayllari

272

Yil davomida o'tkazilgan tadbirlar ichidan mavzuli, adabiy-badiiy kechalar soni eng yuqori ko'rsatkichni 1 655 tani, turli konsert dasturlari soni 1018 tani, ommaviy-madaniy-ma'rifiy tadbirlar soni 481 tani, hamda teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari soni 272 tani tashkil etdi.

Shu bilan birga 31 ta pullik tadbirlar ham tamoshabinlarga havola etildi. Ushbu tadbir ishtirokchilari soni 6 692 nafardan iborat bo'lgan.

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATI MADANIYAT MARKAZLARI UYUSHMALARI ISHTIROKCHILARI SONI, %

Andijon viloyatining 16 ta shahar va tumanlarida 2022-yil yakuni bo'yicha to'garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari ishtirokchilari soni 3 840 nafardan iborat. Ulardan 2 388 nafari turli xidagi to'garaklarda, 97 nafari studiyalarda, 5 nafari qiziqishlar bo'yicha klublar va uyushmalarda, 1 350 nafari badiiy havaskorlik jamoalarida faoliyat olib boradilar.

Badiiy jamoalari ishtirokchilari soni 1 350 nafardan iborat bo'lib, ulardan 452 nafari "Xalq" havaskorlik jamoalarida va 107 nafari "Namunali" bolalar havaskorlik badiiy jamoalarida faoliyat ko'rsatadilar.

Badiiy havaskorlik
jamoalari soni, *birlik*



Badiiy havaskorlik jamoalari
ishtirokchilari soni, *kishi*

207

To'garaklar

2388

77

Badiiy havaskorlik jamoalari

1350

9

Studiyalar

97

1

Klublar va uyushmalar

5

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDA O'TKAZILGAN MADANIY-MA'RIFIY TADBIRLARIDAGI ISHTIROLCHILAR SONI, *ming kishi*

Andijon viloyatining madaniyat markazlari tomonidan 2022-yil davomida o'tkazilgan tadbirlarda ishtirok etganlar soni jami 1108,0 ming nafardan iborat bo'lib, ulardan 179,9 ming nafari bolalar va 158,5 ming nafari ayollardan iborat.

Andijon sh - 340,9

Xonobod sh - 54,7

Oltinko'l - 45,7

Andijon - 238,6

Baliqchi - 12,5

Bo'ston - 19,9

Buloq boshi - 42,9

Jalaquduq - 29,3



Izboskan - 65,2

Ulug'nor - 3,5

Qo'rg'ontepa - 41,3

Asaka - 6,8


Marxamat - 35,4

Shaxrixon - 93,7

Paxtaobod - 41,9

Xo'jaobod - 35,7

MADANIY –MA'RIFIY TADBIR ISHTIROKCILARI, %



Mavzuli, adabiy-badiiy kechalar



Konsertlar



Teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari



Ommaviy-madaniy –ma'rifiy tadbirlar

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari



Madaniyat — inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Madaniy meros bu — xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar va urf-odatlar, joylar, obyektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

Madaniy meros obyektlari — moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

Moddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

Nomoddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

Diqqatga sazovor joylar — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarixiy markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.





**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**



**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi**



**Manzil: 170100, Andijon sh., Milliy
Tiklanish ko'chasi, 36- A uy**



Aloqa telefoni (74) 228-48-51



e-mail: sdg@stat.uz



www.andstat.uz



facebook.com/andstataxborot